

**Qiziqqan
mutaxassislar
uchun ma'lumot**

**Germaniyada hunarmandchilik
sohasida malakali mutaxassis
sifatida professional
martabaga erishish uchun
imkoniyatingiz**



**Future International
Talents for German
Climate Businesses**



Loyiha va unda ishtirok etish haqida ma'lumot

"Germaniyada iqlim biznesi uchun kelajakdagi xalqaro iste'dodlar" (Future International Talents for German Climate Businesses) pilot loyihasi bilan biz Siz kabi malakali mutaxassislarga Germaniyada hunarmandchilik sohasida kasbiy istiqbolni topishda ko'mak bermoqchimiz. Agar Siz kasb-hunar ta'limini bitirgan va bir necha yillik kasbiy tajribaga ega bo'lsangiz va Germaniyada uzoq muddat yashash va ishlashni istasangiz, biz Sizga nemis hunarmandchilik korxonalarida munosib ish o'rnini topishda yordam beramiz.

Diqqat markazidagi kasblar Loyihaning diqqati markazida Germaniyada energiya almashinuvi va iqlimni muhofaza qilishga hissa qo'shadigan hunarmandchilik kasblari turadi. Hamkor davlatlar bilan birgalikda biz qaysi kasblar ma'lum bir rekruting (ishga qabul qilish) davrining diqqat markazida ekanligini belgilaymiz. Bu kasblarga quyidagi va boshqalar kiradi:

Elektronikachi | Devor quruvchi | Betonchi va temir-betonchi | Duradgor | Tom yopuvchi | Yo'l quruvchisi | Chilangar | Santexnika, istish va sovutish texnikasi bo'yicha

mutaxassis | Avtomexatronikachi | Sovutkich uskunalari bo'yicha mutaxassis

Ariza topshirish muddatlari Loyiha doirasida Siz Germaniyada yashash va ishlashga tayyorlanasiz va hunarmandchilik korxonasiga joylashtirilasiz. Loyihada ishtirok etish uchun ariza topshirishingiz kerak. Arizalar faqat ma'lum sanalarda va faqat 2025 yilda topshirilishi mumkin. Ariza berish muddatlari to'g'risidagi ma'lumotni O'zbekiston Tashqi mehnat migrasiyasi agentligidan olish mumkin.

Eslatma Sizda mutaxassis sifatida hech qanday xarajatlari yo'q. Ishga joylashtirish jarayonida, shuningdek, Germaniyadagi ish va hayotga tayyorlash doirasida til o'rganish va malakaviy moslashuv bilan bog'liq barcha xarajatlar loyiha va ish beruvchilar tomonidan qoplanadi.

Fursatdan foydalanib, kasbiy kelajagingizni Germaniyada hunarmandchilikda boshlang!



Profilingiz

Agar Siz quyidagi talablarga javob bersangiz, loyiha doirasida tanlovlarda ishtirok etishingiz mumkin:

O'zbekistonda davlat tomonidan tan olingan va kamida ikki yillik kasb-hunar ta'limni bitirganlik

Yoshingiz
20 – 40


E'lon qilingan hunarmandchilik kasblarida bir necha yillik (kamida ikki yillik) tajriba

Germaniyaga yaxshi munosabat va nemis tilini o'qishga tayyorlik





Ishga joylashtirish (rekruting) vaqti






Loyihada ishtirok etayotgan Germaniya mintaqalari

"Germaniya iqlim biznesi uchun kelajakdagi xalqaro iste'dodlar" loyihasi Germaniyaning 9 ta mintaqasida amalga oshiriladi. Bu mintaqalarda Siz Germaniyaga kelishingizdan oldin va kelganingizdan keyin Sizga yaqindan ko'mak beradigan va qo'llab-quvvatlaydigan maslahatchi-xodimlar ham bor.

Loyiha doirasida biz Sizga qishloq va shaharlarda joylashgan hunarmandchilik korxonalarini bilan tanishish imkoniyatini taklif etamiz. Loyihada ishtirok etish uchun Sizdan kelajakdagi yashash va ish joyingiz masalasida ma'lum bir ochiqlik va moslashuvchanlik talab etiladi.



Qo'shimcha ma'lumotlarni Migratsiya agentligining internet sahifasidan olasiz:
<https://xorijsdaish.uz/>



Future International Talents for German Climate Businesses

Tasvirlar: iStock
Holat: 2025 yil yanvar

Amalga oshiruvchi tashkilotlar:



Gefördert durch:



Dizayn:



aufgrund eines Beschlusses
des Deutschen Bundestages